Олимпийских играх в 1896–2024 гг. характеризовалось устойчивым долгосрочным ростом и завершилось достижением полного численного гендерного паритета к 2024 г.

Линейные модели подтвердили статистически значимое увеличение доли женщин и одновременное сокращение разрыва до паритета на протяжении всего рассматриваемого периода.

Квадратичная модель показала, что данный процесс не был строго равномерным: в более поздние исторические периоды темпы роста участия женщин заметно ускорились.

Модель со структурным сдвигом после 1990 г. подтвердила, что в новейший период приближение к паритету происходило быстрее, чем на более ранних этапах.

Модель, учитывающая предельный уровень паритета, показала, что при анализе поздних стадий сближения более корректно использовать подходы, учитывающие естественную верхнюю границу показателя, чем простую линейную экстраполяцию.

Описательное сопоставление с глобальными показателями гендерного неравенства, участия женщин в рабочей силе, парламентского представительства и охвата девушек средним образованием показало, что олимпийская динамика разворачивалась параллельно более широким социальным, политическим, экономическим и образовательным изменениям.

В целом история участия женщин в летних Олимпийских играх отражает длительный переход от почти полного исключения к фактическому численному паритету. Вместе с тем достигнутый паритет в составе участников не означает автоматического устранения всех форм гендерного неравенства в спорте.

Литература:

1. International Olympic Committee. Gender Equality and Inclusion Progress Report 2021–2024. Lausanne: IOC; 2024.
2. International Olympic Committee. Celebrating full gender parity on the field of play at Paris 2024. Olympics.com; 2024.
3. World Economic Forum. Global Gender Gap Report 2024. Geneva: World Economic Forum; 2024.
4. United Nations Development Programme. Human Development Reports Data Center: Gender Inequality Index (GII). New York: UNDP; 2024.
5. World Bank. Proportion of seats held by women in national parliaments (%), SG.GEN.PARL.ZS. Washington, DC: World Bank; 2024.
6. World Bank. Labor force participation rate, female (% of female population ages 15+), SL.TLF.CACT.FE.ZS. Washington, DC: World Bank; 2024.
7. World Bank. School enrollment, secondary, female (% gross), SE.SEC.ENRR.FE. Washington, DC: World Bank; 2024.



Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dotsent
B.D. ERGASHOV[1]
[1]Guliston davlat pedagogika insituti
Guliston shahri, O‘zbekiston
https://orcid.org/0009-0009-0132-4879

https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i4.a0020

MALAKALI KURASHCHILARDA KUCH VA CHIDAMLILIK SIFATLARINI YORDAMCHI VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

В статье описываются этапы применения соревновательной техники у квалифицированных борцов и методы ее развития с использованием вспомогательных средств для определения уровня развития силовых и выносливостных типов в их выступлениях. Предполагается, что результаты оценки силовых и выносливостных типов могут служить для повышения эффективности их формирования и совершенствования в процессе тренировок.

Ключевые слова: *Борьба, соревнования, сила, выносливость, различные весовые категории, вспомогательные средства, физические качества.*

Abstract

Maqolada malakali kurashchilarda bellashuv usullarini qo‘llash fazalari hamda ularni ijro etishda kuch va chidamlilik turlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash yordamchi vositalari orqali rivojlantirish usullari ochib berilgan. Bunda kuch va chidamlilik turlarini baholash natijalari mashg‘ulotlar davomida o‘rnatish va takomillashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkinligi ehtimol qilingan.

Kalit so‘zlar: *kurash, bellashuv, kuch, chidamlilik, turli vazn toifasi, yordamchi vositalar, jismoniy sifat.*

The article describes the phases of application of competitive techniques in qualified wrestlers and the methods of developing them using auxiliary tools to determine the level of development of strength and endurance types in their performance. It is believed that the results of assessing strength and endurance types can serve to increase the effectiveness of their establishment and improvement during training.

Key words: *wrestling, competition, strength, endurance, different weight categories, aids, physical quality.*

Dolzarbligi: Respublikamizda malakali kurashchilar tayyorlash amaliyoti, mahalliy mutaxassis-olimlar tomonidan ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar tarkibida kurashchilarimizni xalqaro musobaqalarida yuksak natijalarga erishishiga qaratilmoqda, «Milliy sport turlarini rivojlantirish va ommaviyligini oshirish, ularni Osiyo va Olimpiada o‘yinlari dasturlariga kiritish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish» vazifasi belgilab berilgan. Ammo xorijiy va yurtimiz mutahassislari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar, chop etilgan ilmiy-metodik va o‘quv manbalaridan ma’lum bo‘ldiki, kurashda mushaklarni izometrik va izotonik tartibda kuchlanishi, shu jumladan raqibga kontsentrik va ekstsentrik rejimlarda qarshilik

ko‘rsatishga asoslangan stotodinamik kuch chidamkorligi etarli darajada o‘rnatilmagan tadqiqot ishimizni dolzarbligidan dalolat bermoqda. Alohida ta’kidlash joizki, kuch va chdamlilik deyarli barcha sport turlarida asosiy ko‘rsatkichlar namoyish etishda yetakchi hisoblanadi yoki boshqacha qilib aytganda kurash turlarida qo‘l va oyoq kuchi o‘rtasida yaqqol ko‘zga tashlanuvchi asimmetrik farq mavjud ekanligidan darak beradi. Bundan tashqari kurash harakatlarni samarali amalga oshirishga chidamlilik sifatini roli juda katta axamiyat kasb etadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 oktabrdagi PQ-3306-son «Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881 sonli «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida» 2024-yil 20-dekabrdagi PQ-450-son «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi malakali kurashchilarda bellashuv usullarini qo‘llash fazalari hamda ularni ijro etishda kuch va chidamlilik sifatlarini ahamiyati va rivojlanganlik darajasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Malakali kurashchilar bellashuvlarida asosan qo‘llar kuchi bilan va chidamlilik bilan barcha usullarni qo‘llashi, shu jumladan mazkur holatda raqibni ko‘tarib tashlash, birinchidan, kurashchilar kuchi va chidamliligini simmetrik nisbatda yuksak rivojlangan bo‘lishini talab qiladi. Ikkinchidan, raqibni ko‘tarib tashlash uchun ikki qo‘l va gavda kuchi va chidamliligini yuksak shakllanganligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu borada o‘tkazilgan joriy tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, an’anaviy mashg‘ulotlarda shug‘ullanib kelayotgan malakali kurashchilarda qayd etilgan segmentlarning mushaklari kuchi etarli rivojlanmagan ekan.

Zamonaviy kurash bellashuvlarida harakatlar ko‘p martalab ko‘tarib tashlash samaradorligi ustuvor jihatdan statik va dinamik kuch chidamkorligi yoki boshqacha qilib aytganda, mushaklarni izometrik hamda izotonik rejimda kuchlantirish faolligiga bog‘liqdir. Ana shu bog‘liqlikni o‘rganish maqsadida biz turli vazn toifasiga mansub kurashchilarda yordamchi vositalar sifatida turnik, Brus’ya, maneken, Workout vositalarini turli usullar yordamida maksimal marta yuklamalar bajarish hajmi va vaqtini (shiddatini) o‘quv-mashg‘ulot davomida o‘sish sur’atini o‘rgandik. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Uskuna dastagini itarish va tortish o‘tirgan holatda turli vazn toifasiga mansub kurashchilarda o‘quv yili davomida o‘sgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Malakali kurashchilarda kuch va chidamlilik qobiliyatlarini (Workout) vositalarini turli usullar yordamida max marta itarish va tortish hajmi va vaqtini o‘quv – mashg‘ulot yilida o‘sish sur’ati – ± б

№	Testlar	60 kg n = 5	66 kg n = 5	73 kg n = 5	81 kg n = 5
1	Uskuna dastagini itarish o‘tirgan holatda; - hajmi (marta)	24,2 ± 2,21 24,5 ± 2,26	24,9 ± 2,28 25,3 ± 2,33	25,5 ± 2,36 25,7 ± 2,38	24,4 ± 2,27 23,7 ± 2,19
2	vaqti (daq/s.)	2,46 ± 0,17 2,47 ± 0,19	2,49 ± 0,22 2,52 ± 0,25	2,53 ± 0,31 2,54 ± 0,33	2,50 ± 0,27 2,47 ± 0,25
3	Uskuna dastagini tortish o‘tirgan holatda; - hajmi (marta)	22,3 ± 2,04 22,7 ± 2,11	23,7 ± 2,19 23,9 ± 2,23	24,5 ± 2,27 25,3 ± 2,32	24,2 ± 2,21 24,5 ± 2,25
4	vaqti (daq/s.)	2,37 ± 0,13 2,42 ± 0,15	2,42 ± 0,19 2,45 ± 0,21	2,47 ± 0,31 2,52 ± 0,35	2,48 ± 0,33 2,49 ± 0,35

Uskuna dastagini itarish o‘tirgan holatda 60 kg vazn toifasidagi kurshchilarda 24,2 ± 2,21 – 24,5 ± 2,26 martagacha, 66 kg vazn toifasidagi kurshchilarda 24,9 ± 2,28 – 25,3 ± 2,33 martagacha, 73 kg vazn toifasidagi kurshchilarda – 25,5 ± 2,36 – 2,38 martagacha, 81 kg vazn toifasidagi kurshchilarda ushbu ko‘rsatkich qisman kamaygan va o‘quv yili boshida 24,4 ± 2,27 martani tashkil etgan bo‘lsa, o‘quv yili yakuniga kelib 23,7 ± 2,19 martagacha yanada tushib ketgan. turli vazn toifasiga mansub kurashchilarda qayd etilgan Uskuna dastagini itarish o‘tirgan holatda sonlari (xajmi) muvofiq ravishda quyidagi vaqt davomida amalga oshirilgan: 2,46 ± 0,17 – 2,47 ± 0,19 s.; 2,49 ± 0,22 –2,52 ± 0,25 s.; 2,58 ± 0,31–2,54 ± 0,33 s.; 2,50 ± 0,27 – 2,47 ± 0,25 s.ga teng bo‘lgan. Kurash statistikasidan ma’lumki, kurashchi 4 daq. davom etadigan bir bellashuv davomida 17 – 21 marta atrofida xujum harakatlarini qo‘llashga urunishi qayd etiladi, lekin, shundan samarali yoki samarasiz harakatini 5 – 6 marta to‘liq qo‘llashi kuzatiladi. Shunday ekan qo‘llaniladigan har bir usul samaradorligini oshirish maqsadida kuch va chidamlilikni rivojlantirish uchun turli usullar yordamida mashqlarini qo‘llash kurashchilarda kuch va chidamkorligini oshirish imkonini yaratadi.

Uskuna dastagini maksimal marta tortish o‘tirgan holatida soni 60 kg vazn toifasida 22,3 ± 2,04 martadan

22,7 ± 2,11 martagacha, vaqti esa 2,37 ± 0,13 s. dan 2,42 ± 0,15 s.gacha ortgan. 66 kg vazn toifasida soni 23,7 ± 2,19 martadan 23,9 ± 2,23 martagacha, vaqti – 2,42 ± 0,19 s.dan 2,45 s.gacha, 73 kg vazn toifasida soni –24,5 ± 2,27 martadan 25,3±2,32 martagacha, vaqti –2,47±0,31 s. dan 2,52±0,35 s.gacha, 81 kg vazn toifasida soni –24,2 ± 2,21 martadan 24,5 ± 2,25 martagacha, vaqti –2,48 ± 0,33 s.dan 2,49 ± 0,35 s.gacha ortganligi ma'lum bo'ldi.

Mushaklarni izometrik rejimda kuchlanishi asosida amalga oshiriladigan statik kuch chidamkorligining raqibni ko'tarib tashlash samaradorligida tutgan ulushini aniqlash maqsadida biz alohida statik hamda dinamik kuch chidamkorligi "Yaxshi" va "Sust" rivojlangan kurashchilarda tadqiqot o'tkazdik. Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, statik kuch chidamkorligi (SKCh) "Yaxshi" rivojlangan kurashchilarda manekenni turli usullar yordamida ko'tarib tashlash soni o'quv yili davomida 25,5 ± 2,03 martadan 26,9 ± 2,14 martaga, vaqti esa 2,20 ± 0,33 daq./s.dan 2,26 ± 0,37 daq./s.ga ortgan (2-jadvalga qarang). Lekin, statik kuch chidamkorligi "Sust" rivojlangan kurashchilarda ushbu usulni qo'llash soni 21,3 ± 1,87 martadan 21,8 ± 1,94 martaga, vaqti 2,15 ± 0,24 daq./s. dan 2,19 ± 0,32 daq./s. gacha ortgan xolos. Ko'rinib turibdiki, manekenni tizza yordamida ko'tarib tashlash soni SKCh "Yaxshi" kurashchilarda o'quv yili boshida 4,2 martaga, yakunida 5,1 martaga ortiq bo'lgan, vaqti esa muvofiq ravishda 0,5 va 0,7 daq./s. gacha davomli bo'lgan.

Manekenni turli usullar yordamida ko'tarib tashlash soni SKCh "yaxshi" rivojlangan kurashchilarda o'quv yili davomida 23,3 ± 1,87 martadan 24,5 ±1,96 martagacha, vaqti – 2,16 ± 0,27 daq./s.dan 2,19 ± 0,31 daq./s. gacha ortgan. SKCh "Sust" rivojlangan kurashchilarda mazkur ko'rsatkichlar muvofiq ravishda: soni- 18,5 ± 1,55 – 18,8 ± 1,71 martani, vaqti – 2,07 ± 0,33 – 2,11 ± 0,35 daq./s.ni tashkil etgan. Demak, mazkur usulda uskuna dastagini maksimal marta itarish va tortish o'tirgan holatida ko'rsatkichlari SKCh "Yaxshi" rivojlangan kurashchilarda soni bo'yicha 4,8-5,7 martaga ortiq, vaqti 0,6-0,8 daq./s.ga uzunroq bo'lgan.

Qayd etilgan ko'rsatkichlarning qiyosiy tahliliga asosan shunday xulosaga kelish mumkinki, kurash bellashuvlarida SKCh "yaxshi" shakllangan kurashchida raqibni turli usullar yordamida ko'tarib tashlash hajmi va shiddati nisbatan yuksak natijalar bilan qayd etilishi kuzatilar ekan.

2-jadval

Statik kuch chidamkorligi yaxshi va sust rivojlangan turli vazn toifasiga mansub malakali kurashchilarda manekenni turli usullar yordamida ko'tarib tashlash samaradorligini o'quv-mashg'ulot yili davomida o'sish sur'ati sur'ati – ± Б


№	Testlar	SKCh yaxshi rivojlangan kurashchilar n = 20	SKCh sust rivojlangan kurashchilar n = 20	Ko'rsatkichlar farqi
1	Manekenni max marta tizza yordamida ko'tarib tashlash; soni (marta)	25,5 ± 2,03 26,9 ± 2,14	21,3 ± 1,87 21,8 ± 1,94	4,2 5,1
2	vaqti (daq/s.)	2,20 ± 0,33 2,26 ± 0,37	2,15 ± 0,24 2,19 ± 0,32	0,5 0,7
3	Manekenni max marta ko'krakdan oshirib, tashlash; soni (marta)	23,3 ± 1,87 24,5 ± 1,96	18,5 ± 1,55 18,8 ± 1,71	4,8 5,7
4	vaqti (daq/s.)	2,16 ± 0,27 2,19 ± 0,31	2,07 ± 0,33 2,11 ± 0,35	0,6 0,8

Izoh: - suratda – 2021 – yil, oktabr; - maxrajda – 2022 – yil, iyun.

SKCh "yaxshi" va "sust" rivojlangan kurashchilarda manekenni turli usullar yordamida ko'tarib tashlash soni va vaqtining o'quv yili davomida o'zgarish dinamikasi 3.4.1-diagrammada aks ettirilgan. Ushbu diagrammalardan ko'rinib turibdiki, SKCh "yaxshi" rivojlangan kurashchilarda manekenni turli usullar yordamida ko'tarib tashlash ko'rsatkichlari SKCh "sust" rivojlangan kurashchilarnikiga nisbatan o'quv yili boshida 4,2 -4,8 martaga ortig'i bilan qayd etilgan bo'lsa, o'quv yili yakuniga kelib, bu ko'rsatkichlar yanada ortgan va muvofiq ravishda 5,1 – 5,7 martani tashkil etgan.

Muhokama etilayotgan masalalar doirasida ilmiy – amaliy jihatlardan o'ta muhim bo'lgan va bugungi kungacha deyarli tadqiqot ostiga olinmagan yana bir muammo e'tiborga loyiqki, bu ham bo'lsa statik va dinamik kuch chidamkorligi o'rtasida o'zaro bog'liqligi "Mavjudmi yoki yo'qmi ?"- degan savolga javob topishdir.

Ushbu muammoni o'rganish uchun biz dastlab statik kuch chidamkorligi "yaxshi" va "sust" rivojlangan kurashchilarda dinamik kuch chidamkorligini, keyin dinamik kuch chidamkorligi "yaxshi" va "sust" rivojlangan kurashchilarda statik kuch chidamkorligini o'rgandik.



Izoh: A-manekenni tizza yordamida ko'tarib tashlash soni; B-manekenni ko'krakdan oshirib tashlash soni; 1-o'quv yili boshida; 2-o'quv yili yakunida. **1-diagramma. O'quv yili boshi va yakunida SKCh "yaxshi" rivojlangan kurashchilarda manekenni ko'tarib tashlash ko'rsatkichlarining SKCh "sust" rivojlangan kurashchilarda qayd etilgan muvofiq ko'rsatkichlardan farqlanish darajasi (marta)**

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, SKCh "yaxshi" rivojlangan kurashchilarda turnikda max marta tortilish (dinamik kuch chidamkorligi) soni 14,7 ± 1,53 martani tashkil etgan bo'lsa, SKCh "sust" rivojlangan kurashchilarda bu ko'rsatkich 11,6 ± 1,02 martaga teng bo'lgan yoki mazkur ko'rsatkichlar farqi 3,1 martaga birinchi guruhda yuqori bo'lgan (3-jadvalga qarang).

Brus'yada tayanib, qo'llarni max marta bukish – yozish soni birinchi guruhda 34,5 ± 2,77 marta bilan ifodalangan, ikkinchi guruhda esa bu ko'rsatkich 27,2 ± 2,23 marta bilan qayd etilgan, farqi 7,3 martaga teng bo'lgan.

30 kg. manekenni elkada ushlab, o'tirib turish max marta soni birinchi guruhda 26,6 ± 2,05 marta, ikkinchi guruhda 22,3 ± 1,67 martaga teng bo'lganligi kuzatildi yoki farq birinchi guruh foydasiga 4,3 martani tashkil etgan.

O'rindiqda yotgan holda 30 kg. shtangani ko'tarib tushirish – soni muvofiq ravishda: 20,1 ± 1,56; 17,5 ± 1,03 marta bilan ifodalangan yoki ko'rsatkichlar farqi birinchi guruh foydasiga 2,6 martaga ko'p bo'lgan. SKCh "yaxshi" rivojlangan kurashchilarda DKChning SKCh "sust" rivojlangan kurashchilarnikiga nisbatan yuqori farq bilan namoyish etilgan ko'rsatkichlari aks ettirilgan.

3-jadval

Statik kuch chidamkorligi yaxshi va sust rivojlangan turli vazn toifasiga mansub malakali kurashchilarda dinamik kuch chidamkorligini qayd etish darajasi – ± б

№	Testlar	SKCh yaxshi rivojlangan kurashchilar n = 10	SKCh sust rivojlangan kurashchilar n = 10	K/f
1	Turnikda max marta tortilish (marta)	14,7 ± 1,53	11,6 ± 1,02	3,1
2	Brus'yada tayanib, qo'llarni max marta bukish – yozish (marta)	34,5 ± 2,77	27,2 ± 2,23	7,3
3	30 kg manekenni elkada ushlab, o'tirib turish (marta)	26,6 ± 2,05	22,3 ± 1,67	4,3
4	O'rindiqda yotgan holda 30 kg. shtangani ko'tarib – tushirish (marta)	20,1 ± 1,56	17,5 ± 1,03	2,6

Izoh: - SKCh – statik kuch chidamkorligi.

Dinamik kuch chidamkorligi "Yaxshi" rivojlangan kurashchilarda turnikda osilib, qo'llarni 90° bukilgan holatida max muddat davomida saqlash vaqti (statik kuch chidamkorligi) 33,4 ± 2,79 s. ushbu kuch chidamkorligi "sust" rivojlangan kurashchilarda esa mazkur ko'rsatkich 27,7 ± 2,56 s. tashkil etgan. Ko'rsatkichlar farqi 5,7 marta bilan birinchi guruh foydasiga hal bo'lgan Brus'yada tayanib, oyoqlarni 90° bukilgan holatida saqlash birinchi guruhda 29,8 ± 2,61 s. ikkinchi guruhda – 25,5 ± 2,13 s. teng bo'lgan yoki farq 4,3 s. bilan birinchi guruh foydasiga qayd etilgan.30 kg.li manekenni elkada ushlab, gavdani 90° oldinga holatida saqlash vaqti DKCh "Yaxshi" rivojlangan kurashchilarda 36,8 ± 2,88 s.ni tashkil etgan bo'lsa, DKCh "sust" rivojlangan kurashchilarda bu ko'rsatkich 31,5±2,07 s.ga teng bo'lganligi aniqlandi yoki ko'rsatkichlar farqi 5,3 s. bilan birinchi guruh foydasiga qayd etilgan. 30 kg. manekenni ko'krakka ushlab, orqaga max egilgan holatda saqlash vaqti birinchi guruhda 16,7 ±2,25 s. ikkinchi guruhda 13,3 ± 2,11 s. tashkil etgan yoki ko'rsatkichlar farqi 3,4 s. bilan birinchi guruh foydasiga namoyish etilgan. (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Dinamik kuch chidamkorligi yaxshi va sust rivojlangan malakali kurashchilarda statik kuch chidamkorligining qayd etilish darajasi – ± б

№	Testlar	DKCh yaxshi rivojlangan kurashchilar n = 10	DKCh sust rivojlangan kurashchilar n = 10	K/f
1	Turnikda osilib, qo'llarni 90° bukilgan holatida saqlash (s.)	33,4 ± 2,79	27,7 ± 2,56	5,7
2	Brus'yada tayanib, oyoqlarni 90° bukilgan holatida saqlash (s.)	29,8 ± 2,61	25,5 ± 2,13	4,3
3	30 kg manekenni elkada ushlab, gavdani 90° oldinga bukilgan holatida saqlash (s.)	36,8 ± 2,88	31,5 ± 2,07	5,3
4	30 kg manekenni ko'krakda ushlab, orqaga max egilgan holatida saqlash (s.)	16,7 ± 2,25	13,3 ± 2,11	3,4

Izoh: - DKCh – dinamik kuch chidamkorligi.

Yuqorida muhokama etilgan tadqiqot natijalarining qiyosiy tahliliga asosan shunday xulosaga kelish mumkinki, an'anaviy mashg'ulotlarda shug'ullanib kelgan malakali kurashchilarda turli xil yordamchi mashqlarni qo'llash soni ham, shiddati (vaqti) ham, birinchidan, etarli darajada qayd etilmagan. Ikkinchidan, ushbu ko'rsatkichlar (o'quv yillari yakunida) va yildan – yilga jadal o'sib bormagan. Uchinchidan, maxsus chidamkorlikni ifodalovchi ushbu ko'rsatkichlar malakali kurashchilarida susayish tendensiyasi bilan farqlanganligi aniqlangan.